



UDK 811.112.1(575.1)

Nilufar ACHILOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-Mail: nilufar_uz@mail.ru

O‘zMU professori Sh.S.Imyaminova taqrizi asosida

USE OF PHRASEOLOGISTS RELATED TO ANIMAL NAMES IN THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article deals with the analysis of German and Uzbek phraseological units, with an animal. The subject of special attention is the study of cultural connotation of phraseological units, proverbs and sayings and the associative relations of animals in the analyzed languages. Consideration of phraseological units associated with the names of creatures in a cultural context allows us to understand the nature of their activities. In the article, the images associated with the names of creatures, which are the basis for the creation of phraseological units, are presented as a set of features that give animals a linguistic consciousness. The practical significance of the article lies in the fact that its results can be used in the study of teaching foreign languages in the curriculum.

Key words: Culture, language, animals, cultural connotation, associative relations, phraseology, animal images.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГОВ СВЯЗАННЫХ С НАЗВАНИЯМИ ЖИВОТНЫХ, В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье анализируются фразеологизмы, связанные с названиями существ, которые широко используются в немецком и узбекском языках. Рассмотрение фразеологизмов, связанных с названиями существ в культурном контексте, позволяет понять характер их деятельности. В статье образы, связанные с названиями существ, которые являются основой для создания фразеологизмов, представлены как совокупность признаков, придающих животным языковое сознание. Практическая значимость статьи заключается в том, что ее результаты могут быть использованы при изучении в учебном курсе преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: Культура, язык, зооморфные образы культурная коннотация, ассоциативные связи, фразеологизм, зооморфные образ.

JONZOT NOMLARI BILAN BOG‘LIQ FRAZEOLIGIZMLARNING NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA QO‘LLANILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillarida keng qo‘llaniladigan jonzotlar nomlari bilan bog‘liq frazeologizmlar tahlil qilingan. Jonzotlar nomlari bilan bog‘liq frazeologizmlarni madaniy kontekstda ko‘rib chiqish ularni faoliyat xususiyatini tushunish imkonini beradi. Maqolada frazeologizmlar yaratilishiga asos bo‘lgan jonzotlar nomi bilan bog‘liq tasvirlar hayvonlarga lingvistik ong beradigan xususiyatlar to‘plami sifatida taqdim etilgan. Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalaridan o‘quv dasturida chet tillarini o‘qitishni o‘rganishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: Madaniyat, til, jonzotlar, jonzotlar nomi bilan bog‘liq frazeologizmlar, madaniy konnotatsiya, frazeologizm, jonzot nomlari bilan bog‘liq obraz.

Kirish. Insoniyat tamadduni uchun cheksiz ahamiyatga ega bo‘lgan eng buyuk ixtirolardan biri bu tildir. Til – millatning ruhi, qolaversa, dunyoda har bir millat bor ekan, uning tili ham yashaydi. Tilning asosiy vazifalari qatoriga muloqot (kommunikativ), tafakkur (kognitiv), bilimlarni to‘plash va saqlash (kumulyativ), narsa va obyektlarni atash (nominativ), his-hayajonlarni ifodalash, munosabat bildirish (emotiv-ekspressiv) kabilarni kiritish mumkin. Tadqiqotchilar tomonidan tilning madaniy hodisa, ijtimoiy interaktsiya hosilasi ekanligi ta’kidlanadi.

Til va milliy ruhning yaxlitligini, milliy tafakkurning determinantligini nemis tilshunos olimi Vilhelm fon Humboldt (Wilhelm von Humboldt) e’tirof etadi. Humboldt tomonidan ilgari surilgan lingvistik konsepsiyada til o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi organizm sifatida ta’riflanadi[1]. Shuningdek, insonning ma’naviy olamida lisoniy madaniyati muhim o‘rinni egallaydi. Tarixiy davrlarning, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning eng muhim xususiyatlari til madaniyatida namoyon bo‘ladi. Til madaniyatining ijtimoiy-psixologik vazifalari qatorining kengayishida esa lisoniy qurilishdagi

o‘zgarishlar, lug‘at va frazeologiya tarkibidagi semantik siljishlar, shuningdek, ramziy-stilistik vositalar tizimidagi yangiliklar, nutqiy muloqot meyorlaridagi o‘zgarishlar muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til muloqoti turli darajada sodir bo‘ladi, lekin birinchi navbatda u og‘zaki va yozma nutq shaklida amalga oshiriladi. Yozma nutqda adabiy til meyorlari, tilning fonetik, grammatik, sintaktik, semiotik tizimi, yozma belgilari to‘planadi. Tilni tartibga solish, cheksiz hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, ko‘paytirish va tarqatishda yozma nutqning ahamiyati beqiyos. Og‘zaki nutq esa odatda rejalashtirilgan, lekin to‘liq sayqallanmagan bo‘lsa-da jonli bo‘lganligi uchun suhbatdoshga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Og‘zaki nutqda tildagi tayyor birikmalar, frazeologizmlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Frazeologizmlar – “bu asosan og‘zaki nutqda ishlatiladigan so‘zlarning barqaror birikmalaridir”[2]. Qolaversa, frazeologizmlar har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlarini, psixologiyasi, turmush tarzi, mentaliteti kabilarni chambarchas bog‘liqdir. «Tilning frazeologik fondi xalqning

madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari, odob-axloqi va hokazolar mujassamlashgan», - deb yozadi V.A.Maslova[3]. Xalq og'zaki ijodida frazeologik birliklardan ayrim holatlarni, voqealarni ta'sirchan va jozibali ifodalash maqsadida foydalanadilar. Ular majoziy harakterga ega bo'lib, ifodali va uslubiy buyoqdorligi bilan ajralib turadi (mehrli, haqoratli, istehzoli, nafratli, o'ynoqi va boshqalar).

Ayniqsa, zoonim komponentli frazeologizmlar xalq orasida keng qo'llaniladi. Hayvonlarning xarakterli xususiyatlarini sezish va ularni odamlarga ko'chirish qobiliyati turli tillarni jonzot nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar bilan boyitdi. Tilshunoslikda jonzot nomlarini ifodalovchi leksika qushlar, hayvonlar, baliqlar, sudralib yuruvchilar va hashorotlarning nomlari alohida guruhlarga bo'linadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, jonzotlar o'zlarining obrazligi, emotsionalligi bilan ajralib turadi va ulardan og'zaki nutqda, badiiy matnlarda keng foydalaniladi. Shuni qiziqki, bir jonzot nomi qardosh bo'lmagan turli tillarda bir xil ma'noni ifodalashi mumkin. Ayrim hollarda esa, bir jonzotning o'zi turli tillarda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifatlarni ham aks ettirishi mumkin. Jonzot nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar yuqori mahsuldorligi ekstralingvistik sabablar bilan izohlanadi, chunki uy hayvonlari doimo inson hayotida muhim o'rin tutadi.

Masalan nemis tilida "Schwein" ko'chma ma'noda ijobiy tushuncha ifoda etsa, buning o'zbek tilidagi muqobili bo'lgan "chuchqa" salbiy ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, arablarda go'zal ayollar tuyaga tenglashtirilsa, aksincha nemis, fransuz, ozarbayjonlarda bu dag'allik, beso'naqaylik, jahl va qasos ramzi hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tilning leksik-semantik qatlamida jonzot nomlari singari boy va murakkab tabiatga ega bo'lgan guruhni topish qiyin. Shuning uchun ham ularning tilda muhim vazifani bajarishi qiziqish uyg'otadi. O'zbek tilida hayvonlar obrazi asosida shakllangan ko'pgina frazeologizmlar mavjud bo'lib, ularning ijobiy va salbiy jihatdan qo'llanilishi A.E.Mamatov tomonidan qisman o'rganilgan[4].

Zoonimlar ko'p yillardan beri tilshunoslarning o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, sunggi yillarda qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi hayvon nomlari va ular bilan bog'liq frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish natijalari kuzatilmoqda. Frazeologik birliklar tarkibida hayvon nomlari bilan ifodalanuvchi leksemalarning borligi muayyan frazeologizmlarning ularga bo'lgan munosabatini ifodalashini ko'rsatadi. Odatda, har bir hayvon, hashorot yoki parranda ayrim o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Va bu xususiyatlar yozma yoki og'zaki nutqda insonlarning xarakter, ko'rinish va holatlarini ifodalashda keng qo'llaniladi. Xususan, chumoli va asalari mehnatsevarlik ramzi bo'lsa, ayiq baquvvatlikni, it vafodirlik ramzi bo'lsa, sher dovyuraklikni, maymun ahmoqlikni ifodalasa, quyon esa ehtiyotkorlikni anglatadi. Ular qardosh va qardosh bo'lmagan tillarda qiyoslanganda to'liq yoki qisman mos kelishi mumkin. Nemis va o'zbek tilidagi qo'yidagi frazeologizmlarni tahlil qilamiz.

Nemis tilida	o'zbek tilida
Stark wie ein Pferd	otdek baquvvat;
Schwimmt wie ein Fisch	baliqdek suzmoq;
Schwarz wie ein Rabe	qarg'adek qora;
Störrisch wie ein Esel	eshakdek qaysar;
Schlau wie ein Fuchs	tulkidek ayyor;
Böse wie ein Wolf	bo'ridek yovuz

kabi frazeologizmlar to'liq mos kelsa, qo'yidagi frazeologik birliklar taqqoslanganda sezirli darajada farqlanishi mumkin.

Nemis tilida	o'zbek tilida
Hungrig wie ein Bär	buri (it)dek och;
Sanft wie ein Lamm	otdek yuvosh;

Wie eine Ratte schlafen – (sug'irdek uxlamog) dong qotib uxlamog;

Frazeologizm semantikasida milliy madaniyatning o'ziga xosligi, xalqlarning milliy an'analariga xos xususiyatlari aks etadi. Shu nuqtai nazardan frazeologizmlarda milliy-madaniylikni ifodalashda tilning boshqa xususiyatlari ham yorqin namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, turli xalqlarda bitta hayvonni turlicha qiyoslaydilar. Ba'zan bir xalqdagi qiyos ikkinchisidagi qiyosga umuman o'xshamaydi, hattoki zid bo'lishi ham mumkin, ijobiy va salbiy baholash holatlari ham kuzatiladi. Birgina, "der Hund" (it) leksemi bilan bog'liq frazeologik birliklarni sanab o'tadigan bo'lsak, o'zbek tilining frazeologik lug'atida "it azobida", "itdan olib itga solmok", "it yotish mirza turish" frazeologizmlari bilan izohlangan[5]. Biroq, umumtilda "it" leksemi bilan bog'lik "og'ziga o'rgan itday", "itning urug'iday", "qovunning yaxshisiga it tegadi", "itdan bir suyak qarz", "it iskamas", "itdan oldin qiz chiqar", "it egasini tanimaydi", "itda tinim bor, (...) tinim yo'q" frazeologizmlari ham bor va ular so'zlashuv tilida ham, adabiy tilda xam faol qo'llaniladi. "der Hund" (it) leksemi ko'p xalqlar tasavvurida sodiqlikni ifodalashning eng keng tarqalgan ommabop ramzi hisoblanadi. Lekin turli xalqlarda unga munosabat turlicha qolaveradi. Yevropa madaniyatida itga munosabat haddan tashqari yaqin bo'lganligi uchun uni farzandidek ko'tarib yurish, uy ichiga, hatto yotoqxonaga olib kirish, o'z idishidan ovqat berish mumkin. O'zbek halqida esa it harom hisoblanadi va u faqat qo'riqchi yoki podachi it vazifasini bajarishi mumkin xolos, undan ortig'iga ruxsat berilmaydi. Bu narsa turli xalq tillarida yaratilgan frazeologik birliklarning shakli, ma'nosi va pragmatik jihatlarida aks etishi tayin. Masalan: nemis tilida den Hund hinken lassen - 'nimadandir o'zini chetga olmoq', auf den Hund kommen - 'tanazzulga yuz tutmoq', vor die Hunde gehen (kommen) - 'haloq bo'lmoq', yo'q bo'lmoq', den letzten beißen die Hunde- 'oxiriga qolganni it qopar', bekannt sein wie ein bunter Hund - 'hammaga itdek tanish bo'lmoq', wie Hund und Katze sein (leben) 'it-mushuk bo'lib yashamoq'; ein armer Hund 'qashshoq, baxtsiz'; wie ein Hund leben (müde sein) 'itdek charchamoq'; wie ein geprügelter Hund 'kaltaklangan itdek dumini likillatib qochmoq'; frieren wie ein junger Hund 'kuchukchadek qaltiramoq'; jemanden wie einen Hund behandeln 'kimgadir itdek muomala qilmoq' kabi frazeologizmlarni uchratish mumkin.

Tahlil va natijalar. Lug'atlarda jonzotlar nomlari bilan bog'liq frazeologizmlarni kuzatar ekanmiz, uzoq muddatli taraqqiyot mahsuli hisoblangan frazeologizmlar jamiyat tajribasini aks ettirib, uni bir avloddan ikkinchisiga yetkazishi, shu boisdan ular nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki turli-tuman ijtimoiy jihatdan ahamiyatli ma'lumotlar manbai sifatida ham muhim o'rin egallashiga va insonit nutqida faol ishlatiladigan birikmalarga aylanadi. Shu jihatdan olganda, tilning milliy madaniy semantikasi – bu tarixiy rivojlanish natijasi bo'lib, u madaniy o'tmishni ham o'z ichiga oladiki, xalq tarixi qanchalik boy bo'lsa, uning tiliga hos birliklar shunchalik yorqin va mazmunan ko'p qirrali bo'laveradi. Turli tillar frazeologiyasini qiyosiy jihatdan o'rganish esa har ikkala tilning ham tuzilishini chuqur anglab yetish, bu til sohiblari bo'lgan insonlarning fe'li, madaniyati, adabiyoti, tarixi, urf-odatlari to'g'risidagi bilimlar-ning boyitilishiga xizmat qiladi. Qolaversa, hayvonlarning odatlari frazeologik birliklarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan [6].

Frazeologizmlar obrazlilikni, ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga keltiruvchi muhim vositalar bo'lib, ular badiiy publitsistik matnlar va og'zaki so'zlashuv jarayonlarining ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat kiladi. Nemis tili nutqida faol ishlatiladigan jonzotlar nomlari bilan bog'liq bir qator frazeologizmlarni tahlil qilamiz:

Affe 'maymun': nicht für einen Wald voll Affen 'tilla bersang ham, boshimdan zar sochsang ham'; einen Affen (sitzen) haben 'mast bo'lmoq'; sich einen Affen kaufen 'ko'p huplavormoq; mast bo'lib qolmoq'; einen Affen an j-m gefressen haben 'aqlsizlarcha sevib qolmoq, majnun bo'lmoq';

Bär 'ayiq': einen Bären aufbinden 'boplab ketmoq, qulog'iga lag'mon osmoq'; einen Bären loslassen 'o'ylamasdan, shoshqaloqlik bilan ish qilmoq'; Bärenkräfte haben 'ayiqdek kuchli bo'lmoq';

Bock 'echki': jemanden zum Stündenbock machen 'k immidir aybdor qilmoq';

Elefant 'fil': sich wie ein Elefant im Porzellanladen benehmen 'tomdan tashara tushganday (munosabatda bo'lmoq), qupol harakat qilmoq'; jemand will sich eine Elefantenhaut zulegen 'metindek irodali bo'lmoq';

Esel 'eshak': störrisch wie ein Esel 'eshakdek qaysar';

Fisch 'baliq': stumm wie ein Fisch sein 'baliqdek soqov bo'lmoq';

Fliege 'chivin': keiner Fliege etwas zu leide tun 'chivindek chaqmasdan xushfe'l bo'lmoq';

Frosch 'qurbaqa': sei kein Frosch! 'qo'rqma!';

Fuchs 'tulki': wo sich Fuchs und Hase gute Nacht sagen 'xilvatda qolmoq'; da kommt der Fuchs zum Loch heraus 'ayyorona 'hammasini hal qilmoq';

Hase 'quyon': sehen / wissen, wie der Hase läuft 'ishni kuzini bilmoq'; da liegt der Hase im Pfeffer 'mana kalavanning uchi qayerda'; mein Name ist Hase 'buning menga dahli yo'q, Tuya ko'rdingmi?';

Huhn 'tovuq': mit jemandem (noch) ein Hühnchen zu rupfen haben 'kingadir jasoratli bo'lmoq'; da lachen (ja) die Hühner 'hattoki tovuqqa ham ko'lg'i bo'lmoq';

Katze 'koshka': es war für die Katze 'e'tiborga arzimaydigan noloyiq narsa'; wie die Katze um den heißen Brei herumschleichen 'qaltis masalani chetlab o'tmoq'; die Katze aus dem Sack lassen 'qaramasdan, ko'rsamdan sotib olmoq'; es ist nur Katzensprung 'qo'lga tushmoq';

Kuh 'sigir': das geht auf keine Kuhhaut – buni tasvirlashga qalam ojizlik qiladi, buni tasavvur qila olmasan, tasvirlashga til ojiz'; da stehen wie die Kuh vorm neuen Tor- 'hech narsani tushunmasdan tunkaday qotib qolmoq';

Pferd 'ot': wie ein Pferd arbeiten 'otdek mehnat qilmoq, ishlamoq'; auf das falsche Pferd setzen 'adashmoq'; mit jemandem Pferde stehlen können 'birovga to'liq suyanmoq (tayanmoq)';

Rabe 'qarg'a': ein Unglücksrabe sein 'omadsiz bo'lmoq';

Xulosa va takliflar. Biz ko'rib chiqqan jonzot nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar nemis tilidagi so'zlashuv nutqida ko'plab insoniy fazilatlarini: jismoniy va axloqiy fazilatlarini tavsiflashga yordam beradi. Odamlar hayvonlarning xatti-harakatlari, ularning odatlarini kuzatadi va bu xususiyatlarni odamlarga o'tkazadilar, hayvonlarning xattaharakatini odamlarning harakatlari bilan taqqoslab salbiy va ijobiy ma'nolarda qo'llaydilar. Bu esa tilning leksik qatlamini yanada boyitishga va nutqning ekspressiv buyuqdorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Макаев Э., Общая теория сравнительного языкознания. М., 1977.
2. Шанский, Н.М. Фразеология современного русского языка: Учеб. пособие для вузов по спец. «Русский язык и литература». – 4-е., изд., испр. и доп. / Шанский Н.М. – СПб. : – Специальная Литература, 1996. – 485 с.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. – М.: Academia, 2004.
4. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2000.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent, 1978.
6. Каримова, Р.Х. Семантика зоонимов во фразеологии немецкого и русского языков / Каримова Р.Х. // Политическая лингвистика. – 2005. – № 16. – С. 169–176.
7. Немецко-русский фразеологический словарь / Бинович Л.Э. [и др.]; под ред. д-ра Малиге-Клаппенбах, Агрикола К.; изд. 2-е, испр. и доп. – М. : «Русский язык», 1975. – 656 с.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, - O'qituvchi, 1978.
9. Ullmann, Katja Das A und O. Deutsche Redewendungen / Katja Ullmann. – Stuttgart : Ernst Klett Sprachen GmbH, 2009. – 130 S.
10. Бинович Л.Э. Немецко-русский фразеологический словарь. М.: Аквариум, 1956.
11. Burger H. Phraseologie – Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 2., überarb. Berlin, 2010.